



“Abdullanoma” (“Sharafnomayi Shohiy”) Ning Tarixiy Ahamiyati

Durdona MASHRABALIYEVA,
Namdu, Tarix yo`nalishi talabasi

ABSTRACT

Mazkur maqolada XVI asr tarixchisi Hofiz Tanish Buxoriyning xayot-faoliyati, asarlari xaqida ma`lumot berilgan. Xususan, Hofiz Tanish Buxoriy qalamiga mansub bo`lgan noyob manba “Abdullanoma” asari va uning tarixiy ahamiyati yoritilgan.

ARTICLE INFO

Received: 1st January 2023
Revised: 1st February 2023
Accepted: 6th March 2023

KEY WORDS :

Buxoro xonligi,
shayboniylar, Abdullaxon II, Hofiz Tanish Buxoriy, “Abdullanoma”, noyob manba, “Sharafnomayi shohiy”, nasr, qofiya, joybor shayxlari, I.I.Umniyakov .

Inson omili jamiyatning asosi hisoblanadi. Ommaning taraqqiyoti insonning aqliy rivojlanishi bilan bog`liq. Jamiyatda o`qimishli kishilar ko`payib borar ekan rivojlanish, taraqqiyot bo`laveradi. Ilm shunday omilki, unga ergashgan xalq hech qachon xor bo`lmaydi. Tarix esa shunday ilmki, barcha ilmlarning otasi hisoblandi. Tarixning boshqa ilmlardan bir farqi u tarbiya olishni, xulosa chiqarishni, faxrlanishni, o`zlikni anglash, Vatanga muhabbatni uyg`otadi. Jamiyatning tanazzuliga, taraqqiyotiga, urushga, tinchlikka sabab bo`luvchi barcha omillarni aynan shu tarix ilmi orqali bilib olishimiz mumkin. Kechagi kunimiz ham tarix, biz kecha qilgan xatomizni bugun qilmaslikka harakat qilamiz. Bizdan qolgan har bir narsa yaxshimi, yomonmi bizning tariximizni yaratib boraveradi. Bizdan oldingi davrlarda yashagan ota-bobolar matonati, mehnati, jasurligi bilan g`ozal tariximizni yaratib ketganlar. O`tmishda esa biz bilmagan shunday davrlar borki, ularni ko`z oldimizga keltirish uchun moddiy va yozma manbalarga tayanishimiz kerak. Buyuk temuriylar davlati yemirilgan hokimiyat tepasiga kelgan Shayboniylar (1500-1601) tarqoq mamlakatni markazlashtirdi va tinchlikni ta`minlaydi. Muhammad Shayboniyxondan keyin davlatni yaxlitligini saqlab, markazlashtirgan shayboniylarning yirik vakili Abdullaxon II edi. Aynan mana shu davr tarixini yoritishda yordam beruvchi Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (Sharafnamai shohiy) asari qimmatli manbalar qatoriga kiradi.

Hofiz Tanish Buxoriy haqida yetarlicha ma`lumotlar bizgacha yetib kelmagan. U o`z zamonasining yetuk shoirlaridan bo`lgan. U “Naxliy”, “Kiromiy” taxalluslari bilam mashhur. Hofiz Tanish Buxoriy 1540-yilda Buxoroda tug`ilgan. Uning otasi Mavlono mir Muhammad Ubaydullaxon zamonida (1533-1539) Buxoroda istiqomat qilgan va xonning yaqin kishilaridan bo`lgan. U 1550-yilning boshlarida Qashg`arga ketib qolgan va oradan ikki yil chamasi vaqt o`tgach o`sha yerda vafot etgan [1, – B. 216.] Hofiz Tanish Buxoriy Buxoro madrasalarida o`qib ta`lim oladi. Abdullaxon saroyining yetuk olimlari qatorida bo`lgan va 1584-

yili Abdullaxon II yaqin odami Qulbobbo Ko'kaldosh tafsiyasi bilan "Abdullanoma" asarini yozishga kirishgan, saroy tarixchisi vazifasida bo'lgan [2, – B. 213.]. Ma'lumotlarga qaraganda, Hofiz Tanish Buxoriy asarni yoza boshlaganida 36 yoshda bo'lgan.

Hofiz Tanish Buxoriy o'zining shoh asari – "Abdullanoma" ("Sharafnomai shohiy") bilan tanilgan. Asar shayboniy hukmdor Abdullaxon II ga bag'ishlangan bo'lib, 1584-1588-yillarda Buxoroda fors tilida yozilgan.

Muallifning rejasiga ko'ra, asar muqaddima, 2 qism (maqola) va xotimadan iborat bo'lishi mo'ljallangan. Muqaddimada, odatdagidek, oliy hukmdorning sha'niga hamd-u sano, asarning yozilish sabablari, Abdullaxonning ota-bobolari, qadimdan Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qabilalari, Chingizxon va uning avlodi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Birinchi maqolada O'rta Osiyo Qozag'iston va qo'shni xorijiy mamlakatlarda 1583-yildan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar. Muqaddimada Abdullaxonning sifatlarri uning bilan zamondosh bo'lgan shayxlar, olimlar, shoirlar, vazirlar va amirlar shuningdek, Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma'lumot berilgan. Lekin asarni yozilish jarayonida reja o'zgargan, birinchi va ikkinchi maqolalar qo'shib yozilgan. Xotima esa muallifning bevaqt vafoti tufayli tugallanmay qolgan [3, – B. 239.].

Asar qofiyalangan nasr ko'rinishida yozilgan bo'lib, tili, shakli nihoyatda og'ir. Asar o'xshatish, istioralarga juda boy. Kitobda O'zbekiston, Qozog'iston shuningdek, Afg'oniston, Eronning XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi ham bayon qilingan. Bundan tashqari, xalqlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy, savdo-diplomatik munosabatlar haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Hofiz Tanish Buxoriy asari yakunini XVI asrning 80-yillarida yozib tugallaganligi haqida zamondoshlaridan Mutrubiyl aytib o'tadi.

Asar yozilgan davr nuqtayi nazaridan ilm-fan taraqqiy etgan, tinchlik, siyosiy barqarorlikka erishilgan, toj-u taxt uchun kurashda esa shayboniylarda Iskandarxonning o'g'li Abdullaxon II (1557-1598) qo'li baland keladi. Abdullaxon II Movoraunnahrda hukmron bo'lgan davrda kuchli markazlashgan davlatga asos soladi. Bu haqida "Abdullanoma" da batafsil ma'lumotlar keltirilgan [4, – B.21.].

Asarda o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o'rin egallagan din ulomolari haqida batafsil ma'lumot berib ketilgan. Dinning yirik nomayondalari shunday shaxslar bo'lganki, davlatning ichki va tashqi hayotida muhim o'ringa ega bo'lishgan. Hatto xonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishganlar. Ularga hurmat shu darajada kuchli ediki, tug'ilgan shahzodalarni ularga olib borib ism qo'yib berishi va fotiha o'qishi uchun olib borishgan. Jumladan, asarda Abdullaxon II tug'ilganida Iskandar sulton ism qo'ydirish uchun zamonasining yetuk din olimi Xo'ja Kasoniy (Maxdumi A'zam)¹ oldiga olib boradi. Xo'ja Kosoniy shahzodaga Abdullaxon deb ism qo'yadi [5, – B. 157.]. Bundan tashqari, Abdullaxonni siyosiy maydonga chiqishi va toj-u taxt uchun kurashida amaliy yordam ko'rsatgan XVI-XVII asrlarda katta siyosiy mavqega ega bo'lgan Jo'ybor shayxlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan. Jo'ybor shayxlari Imom Ali avlodi bo'lib Makka va Madinadan Nishopurga undan Buxoroga dinni targ'ib qilib kelishadi. Ulardan Abu Bakr Sa'd Yamaniy shayxulislomi bo'gan. Uning nabirasi Muhammad Islom ham katta nufuzga ega bo'lib Abdullaxonning piri bo'lgan [6, – B. 135 -136]. Jo'ybor shayxlari bu nomni olishiga sabab Muhammad Islomning bobosi Xo'ja Muhammad Yahyo Buxoroning Jo'ybor degan yeriga ko'chib kelganidan buyon ularni Jo'ybor shayxlari deb atay boshlangan. Ularning mol-mulki va davlati juda behisob bo'lganligini asarda uchratamiz: "Yetti iqlimning tez hisoblaydigon hisobchilari, ularning mulkining yuzdan birini ham hisoblay olmaydilar" [7, – B. 147.]. Bundan ko'rishimiz mumkinki, Jo'ybor shayxlari siyosiy va iqtisodiy hayotda katta o'rin egallashgan. Muhammad Islom o'zining bobosi Abu Bakr Sa'dga bag'ishlab xonaqoh, masjid va madrasa qurdiradi, uning atroflarini bog'ga aylantiradi. Abu Bakr Sa'd mozori oldida Abdullaxon uchun choxarbog' qurdiradi [8, – B. 279-281.]. Ular davlatning obod bo'lishiga ham munosib hissa qo'shishgan.

Shuningdek, asarda Abdullaxon II ning siyosiy-harbiy yurishlari, toj-u taxt uchun kurashlari, o'tkazgan islohotlari, elchilik munosabatlarini ham asar orqali batafsil yoritib o'tadi. Asar bir necha asrlardan beri sharqshunos olimlar e'tiborini qozonib kelmoqda. Sharqshunos olim I.I.Umniyakov asarning 17 ta nusxasini chuqur o'rganib, asar XVI asrdagi O'rta Osiyo tarixini o'rganishda muhim o'rin tutishini aytadi. Asarni o'zbek tiliga tarjima qilishda taniqli o'zbek sharqshunosi Sodiql Mirzayev katta hissa qo'shadi. Olim o'n yil davomida asar ustida ishlab 1951-yilda oxiriga yetkazadi [9, – B. 368.]. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki,

¹ Mavaunnahrlik alloma, yirik diniy arbob, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili, 1464-1542-yillarda yashab o'tgan.

kitob XVI asrning siyosiy, iqdisodiy, savdo, dimlomatik aloqalarini, xonlarni va Abdullaxon II faoliyati haqida qimmatli ahamiyatga ega. Yurtimizning shonli tarixini yoritishda, Vatanga muhabbat hissini uyg'otishda, o'zligimizni anglashaimizda bunday manbalarning o'rni beqiyos, yozma asarlarsiz bizning tariximiz kemptik bo'lib qoladi, zero, bunday manbalarni o'rganib yosh avlodga yetkazish bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хофиз Таниш Бухорий Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). – Т.: Фан, 1966.
2. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001.
3. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
4. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Т.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008
5. Manbashunoslik. – Т.: Turon-Iqbol, 2019.
6. Shamsutdinov R., Karimo Sh., Xoshimov S., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. – Т.: Sharq, 2016.